XALQ DEPUTATLARI SIRG'ALI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr III-17-94-14-201-K/25 Sirg'ali tumani

Sergeli tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2025-yil 25-dekabrdagi O'RQ-1105-son Qonuniga va Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-18-207-14-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent shahar hokimligining 2025-yil 26-dekabrdagi 02-3659-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Sergeli tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-18-207-14-0-K/25-son qarori (keyingi o'rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Sergeli tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **151 582 874,0 ming so'm** va xarajatlari esa **151 582 874,0 ming so'm** qilib belgilanganligi, shuningdek Sergeli tumani mahalliy budjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **1 423 534,0 ming so'm** etib tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

Qonunning 12-moddasiga muvofiq hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-024-14-0-K/24-son qarorining 8-bandiga asosan:

a) **soliqlarning quyidagi turlari tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:**

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar;

b) **quyidagilar Toshkent shahrining shahar budjeti va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:**

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan;

qo‘shilgan qiymat solig‘i Toshkent shahar mahalliy budjetiga tushgan tushumlardan 5 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilaridan tashqari);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i Toshkent shahar mahalliy budjetiga tushgan tushumlardan (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 5 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilaridan tashqari);

foyda solig‘i Toshkent shahar mahalliy budjetiga tushgan tushumlardan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 5 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilaridan tashqari);

davlat bojlari;

yig‘imlar;

jarimalar;

3. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 400 028,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib

bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

4. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Jumaboyev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (F.Valixanov), tuman soliq inspeksiyasi (H.Qosimov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

6. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Sergeli tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (A.Mirxidoyatov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Jumaboyev zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **MUXAMEDOV UMID RUSTAMOVICH**

Xalq deputatlari Sirg’ali tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
III-17-94-14-201-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Sergeli tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Mablag‘ miqdori
JAMI		**151 582 874**
1	Foyda solig‘i	1 204 671
2	Aylanmadan olinadigan soliq	3 365 500
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 377 058
4	Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mol-mulkini ijaga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi dekloratsiyasiga asosan olinadigan daromad solig‘i	1 681 250
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1 918 705
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	15 827 140
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	54 695 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i	11 518 650
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	21 725 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	24 003 000
11	Davlat boji	5 254 600
12	Jarimalar	3 240 950

13	Mahalliy soliqlar va yig‘imlar	3 382 350
14	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	2 389 000

Xalq deputatlari Sirg’ali tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
III-17-94-14-201-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Sergeli tumanining tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

T/R	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Mablag‘ miqdori
Xarajatlar miqdori, jami		**151 582 874**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	65 976 643
2	Madaniyat markazlari	1 143 108
3	Musiqa maktablari	4 042 262
4	Sport bo‘limi	8 211 751
5	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 144 526
6	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	386 650
7	Hokimyat	35 759 209
	shundan:	
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 798 060
	Madaniyat bo‘limi	149 078
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	3 401 327
	Chernobil	4 488
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	2 483 245

	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*16 160 000*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*3 264 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 400 028*
8	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 106 905
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*336 414*
	Axborot-kutubxona markazlari	*770 491*
9	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	24 975 622

Xalq deputatlari Sirg’ali tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
III-17-94-14-201-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

№	Tuman nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan		Foyda solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i	
		Tuman budjetiga											
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Sergeli tumani	0%	5%	0%	5%	0%	5%	0%	5%	0%	14%	0%	13%

№	Tuman nomi	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Aylanmadan soliq	Davlat boji	Jarima	Yig‘imlar
		Tuman budjetiga				Tuman budjetiga			
		MRI	DSB	MRI	DSB				
1	Sergeli tumani	100%	100%	100%	100%	5%	5%	5%	5%